

**PAPE MASHE USULI ORQALI TARBIYACHILAR VA TARBIYALANUVCHILAR
IJODKORLIKALARINI OSHIRISH**

Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna

Andijon davlat Pedagogika instituti maktabgacha ta'lim o'qituvchisi

yaqubovamuhabbat90@gmail.com +998945622223

Annotatsiya

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish maqsadida bir qancha ilg'or usullar tatbiq etib kelinmoqda. Shulardan biri tarbiyachilar pape mashe usuli orqali amaliy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish, ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi isbotlanib kelinmoqda.

Kalit so`zlar: maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi, pape mashe, qog'oz, mayda va yirik motorika sensor motorika.

KIRISH

Mamlakatimizda amal qilayotgan ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarni jismoniy, ma'naviy, axloqiy va estetik jihatdan tarbiyalashning dastlabki va eng muhim jabhasi hisoblanadi. SHuning uchun ham, aynan maktabgacha ta'lim yoshi bolalarning dunyoqarashini shakllantirishning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, u bilan birga tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi (keyingi o'rnlarda — Konsepsiya) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son garorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligiga erishgach, uzlusiz ta'lim tizimida yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ularning iqtidori va iste'dodini rag'batlantirishga e'tibor kuchaytirildi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagagi bolalarning aqliy-intellektual salohiyatini oshirish, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqildi va takomillashtirildi.

Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini davlat tomonidan boshqarishning samarali tizimini yaratish hamda uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha so'nggi besh yilda maktabgacha ta'lim sohasida o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichini oshirish, tizimga samarali ta'lim va tarbiya usullarini joriy etish hamda tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar malakasini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlili ishlar amalga oshirildi.

Asosiy qisim

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish, tasavvurlarini boyitish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kundagi tarbiyaviy ishning ustuvor yo‘nalishidir. Bolalar har xil fe’l-atvorga va aql darajasiga ega bo‘lgani kabi ulardagagi iste’dod hamda ijodiyotga bo‘lgan intilish ham turlicha bo‘ladi. Ular o‘rtasida bir-birlarini anglash ruhi va o‘zaro ishonch vujudga keladi. Pedagog tarbiyachining bolalar diqqatini jalg qila olishi, bolalarda o‘zlarini yaratadigan asarlarini emotsiyonal ma’nosini anglashga intilishini vujudga keltirish, ularning olam haqidagi tushunchalarining muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Bola yaratilgan asarga qarab idrok qilar ekan, unda beixtiyor yaratuvchanlik va uni his etish shakllanadi.

Psixologik va pedagogik tadqiqotlarning natijalariga, shuningdek, bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlari ko‘ra, yuqorida ta’kidlaganimizdek, dunyoqarashning asosiy qismini shakllanishi ularning maktabgacha yoshiga to‘g‘ri kelishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bolalarning shakllanish va rivojlanish jarayonining mazkur bosqichiga alohida e’tibor bilan qarash kerak bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagи bolalarning tasviriy faoliyati eng ommaviy tur hisoblanib, deyarli barcha bolalar ham narsalar yaxshi ko‘rishadi. Lekin ular talab darajasida yaxshi yasay olmasliklari mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi-pedagoglar, bolalarning ota-onalari ularni faqat maxsus ishlab chiqilgan tizim asosida va metodikqo‘llanmalar orqali maqsadga yo‘naltirishlari lozim. Bunda bolalarni atrof-muhitdagi narsa va hodisalarni anglash, ularga elementar tarzda estetik munosabat bildirish, ulardan olingen tasavvurlarni o‘z faoliyatlariga tatbiq etishga bosqichma-bosqich o‘rgatib borish, ularni maktab ta’limiga tayyorlab borishning samarali vositalaridan biri ekanligi ham ijtimoiy-pedagogik mohiyat kasb etadi. Tasviriy faoliyat orqali bolalarda aqliy rivojlanish, badiiy did va ijodkorlikni tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi go‘zalliklardan zavqlana bilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin bo‘ladi. Aynan shu omillar maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar bilan o‘tkaziladigan har qanday ta’limiy va tarbiyaviy ishlar, jumladan “Tasviriy faoliyat”ning Pape-mash’e turi muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Zero, “Tasviriy faoliyat” faoliyatlarining “Pape-mashe” turi bo‘yicha olib borilgan maqsadli tadqiqotlarning natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan ta’lim va tarbiya ishlari jarayonida aniqlangan ijtimoiy zarurat, mayjud extiyojdan kelib chiqqan ishlanmalar sifatida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Faoliyatlarning asosiy vazifasi sifatida tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni kuzatilgan voqeа va hodisalarni, ob’ektlarni tasvirlashga o‘rgatish orqali, ularda atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish, olamni bilish va undagi voqeliklarni anglashga o‘rgatish alohida qayd etib o‘tilgan. Bu ta’limiy amallarni samarali bajarish uchun, albatta, maktabgacha ta’lim tashkilot tarbiyachilariga zamonaviy sharoit va extiyojlar asosida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik adabiyotlar majmui bo‘lishi lozim. Tajribalar, kuzatuvlarning natijalari, ularning taxlillari bu sohada ijtimoiy-pedagogik talab va ehtiyoj mavjudligini, shuningdek, mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ta’limiy isloxoatlarga hamohang tarzda maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun tasviriy faoliyat bo‘yicha zamonaviy mazmun va mohiyat kasb etuvchi metodik ishlanmalar yaratilmaganligini ko‘rsatadi.

Pape-mash’e – bu turli xil buyumlarni yaratish uchun qog‘oz va xamirdan foydalanadigan mashhur hunarmandchilik texnikasi. Usul italiyan “G‘ijimlangan qog‘oz” atamasi bilan

nomlangan, bu har qanday qog‘oz mash’e loyihasi uchun zarur bo‘lgan qadamlarni hisobga olgan holda mantiqiy.

Qog‘oz mash’e - bu namlangan qog‘oz va boshqa materiallarni pufak kabi bo‘sh yuzaga qatlamlash. Qog‘ozni namlash uchun ishlatiladigan yopishtiruvchi biriktiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Qog‘oz quriganida, tashqi qobiq qattiqlashadi, keyinchalik uni bo‘yash va bezash mumkin.

Ushbu hunarmandchilik asrlar osha bo‘lib, uning arzonligi va amaliyligi bilan qadrlanadi. Aslida, sizga pinatalar, vazalar va zargarlik qutilari kabi mustahkam buyumlar yaratish uchun qayta ishlangan qog‘oz va oddiy xamir kerak.

Ushbu qadimiy hunarmandchilik bir nechta buyumlarni yasashga yordam beradigan bir necha avlod va mamlakatlarni qamrab oladi. Garchi bu nom fransuzcha bo‘lsa-da, bu usul XVII asrgacha Fransiyada ko‘rinishga ega bo‘lmagan. Bungacha bu texnika Xitoyda va dunyoning boshqa joylarida miloddan avvalgi 200 yilda qo‘llanilgan.

- Qadimgi Xitoyda bu usul snaf qutilari va jangchi dubulg‘alarini qurish uchun ishlatilgan.
- Qadimgi misrliklar zig‘ir va gips yordamida o‘lim maskalarini tayyorlash uchun qog‘oz machelardan foydalanganlar.
- XVIII-asrda evropada ushbu texnika bezakli gips va mebelga o‘yilgan yog‘och uchun arzonroq variant sifatida ishlatilgan.
- Zamonaviy davrda qog‘oz mache plastik kabi materiallar bilan almashtirildi, shuning uchun bezak buyumlari uchun texnika endi savdo sifatida mavjud emas.

Pape-mash’e juda qo‘l keladigan ashyo ko‘pgina mamlakatlarida keng foydalanadi. Pape-mash’e texnikasi yordamida vazalar, patnislari, qutilar tayyorlanadi. Bu mahsulot oliy darajada mustahkam va uzoq vaqt xizmat qiladi.

Xulosa

Tasviriy faoliyatning pape-mash’e turi ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega, olib borilgan maqsadli tadqiqotlarni natijalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilayotgan ta’lim va tarbiya ishlari jarayonida mavjud ehtiyojlardan kelib chiqqan ishlanmalar sifatida muhim pedadogik ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy faoliyat bo‘yicha zamonaviy mazmun va mohiyat kasb etuvchi metodik ishlanmalar va qo‘llanmalar yaratiladi.

- Bolalarda aqliy rivojlanish badiiy did va ijodkorlikni tarkib toptirish, tevarak atrofdagi go‘zalliklardan zavqlana bilish ko‘nikmalari shakllanadi. pape – mashe usulida o‘yin va o‘yinchoqlar yasash nafaqat tarbiyachilar balki katta va tayyorlov guruhlarda tarbiyalanuvchilar bilan ham “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida bolalar yoshiga mos mavzular Masalan: o‘yinchoq, ayiqcha , quyoncha , baliqcha va x.k.larni yasash bolalarni mayda qo‘l motorikalarini rivojlantirish, ularda badiiy estetik didni tarkib toptirish hamda aqliy-intellektual salohiyatini rivojlantirishga, nutqini o‘stirish, tafakkurini shakllantirishga asos bo‘ladi.

- pape-mashe usulida turli narsalar yasash bolalarning hayot xavfsizligini ta'minlaydi.
- Gigienik talablarga mos ravishda tashkil etiladi.
- Ishlatiladigan maxsulotlar bolalarni salomatligiga salbiy ta'sir qilmaydi balki ularga zavq bag'ishladi.
- O'zi yasagan o'yinchog'idan quvonish va yasagan narsasidan zavqlanish tuyg'ulari uyg'onadi.
- Natijada bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish darajasi ortib boradi.
- Bolalarni o'z "Men"i shakllanadi.
- Milliy qadriyatlar va an'analar asosidagi o'yin va o'yinchoqlar bolalarda o'z tug'ilib o'sgan yurtiga faxr iftixor tuyg'usini uyg'otish bilan birga, ochiq ranglar jilosi ular ruhiyatiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.
- Milliy xunarmandchilik asosidagi idishlarni yasash, uy ro'zg'or buyumlarini yasash esa bolalarda xunarmandchlikka bo'lgan qiziqishini ham orttirib boradi.
- Ushbu usul orqali tarbiyachi bolalarda atroficha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirib borishga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanova Sh.T. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish. Tafakkur. T.: 2020.
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
3. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
4. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi. "Sho'lon" 2T:2010y.
5. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Asimova. Ustahonada amaliy mashg'ulot. "Musiqa" T:2010y.
6. O.S.Molotoborova "Krujok izgotovleniya igrushek suvenirov" 1993 yil. M.Pros.
7. Tasviriy faoliyat bolalar bog'chalari ucun dastur. Tashkent 1995 yil.
8. R.Xasanov. Tasviriy san'at va badiiy mehnat.
9. "Davlat talablari" 2018 yil.
10. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi 2018 yil.
11. "Ilm yo'li" variativ o'quv dasturi 2020 yil.